



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **O‘ZBEK YANGILIKLAR SAYTLARIDA TARJIMA VA TAHRIR MASALALARI**

**Dilnoza Shonazarova**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktorant  
Xalqaro Nordik universiteti, o‘qituvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada bugungi kunda yangiliklar saytlarida tarjima va tahrir jarayonining tashkil etilishi masalalari yoritiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy yangiliklar tarjimasidagi tendensiyalar, tarjimonning jarayondagi roli hamda yangiliklarni boshqa tilga tarjima qilish bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Yangiliklar matnining mazmuni, uslubi va auditoriyaga ta‘sirini saqlab qolishda tarjima hamda tahrirning o‘rni alohida ta‘kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** yangiliklar tarjimasi, tahrir-tarjima, tarjimon, jurnalist-tarjimon, sarlavha, tagsarlavha, asl matn, tarjima matni.

## **ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА И РЕДАКТИРОВАНИЯ НА УЗБЕКСКИХ НОВОСТНЫХ САЙТАХ**

**Дилноза Шоназарова**

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, базовый докторант  
Международный Нордический университет, преподаватель

### **Аннотация**

В статье рассматриваются вопросы организации процессов перевода и редактирования на современных новостных сайтах. Также анализируются тенденции перевода новостей, роль переводчика в данном процессе и проблемы перевода новостных материалов на другие языки. Особое внимание уделяется значению перевода и редактирования в сохранении содержания, стиля и воздействия новостного текста на аудиторию.

**Ключевые слова:** перевод новостей, редакционно-переводческая деятельность, переводчик, журналист-переводчик, заголовок, подзаголовок, оригинальный текст, переводной текст.

## **TRANSLATION AND EDITING ISSUES ON UZBEK NEWS WEBSITES**

**Dilnoza Shonazarova**

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Doctoral student  
International Nordic University, Lecturer

### **Abstract**

The article discusses the organization of translation and editing processes on modern news websites. It also analyzes current trends in news translation, the role of the translator in the process, and issues related to translating news into other languages. Particular attention is paid to the importance of translation and editing in preserving the content, style, and impact of news texts on the audience.

**Keywords:** news translation, translation editing, translator, journalist-translator, headline, subheadline, source text, translated text.

XIX asrning o‘rtalarida zamonaviy jurnalistika rivojlana boshlaganidan so‘ng, yangiliklar tarjimasi ham yangiliklarni chop etish va yetkazib berish jarayonining bir qismiga aylana boshladi. Zamonaviy jurnalistika paydo bo‘lgan davrdanoq global miqyosda tarqalib, rivojlanib, til va madaniy chegaralarni kesib o‘ta oldi.

Mana shu jarayonda yangiliklar tarjimasi ham ushbu sohaning bir qismi sifatida rivojlana boshladi. Zero, ma‘lumotning boshqa bir madaniyat, davlat va tilga yetkazib berilishini uning boshqa tilga tarjimasisiz tasavvur qilish qiyin.

Yangiliklar tarjimasi — bu yangiliklarning turli tillar o‘rtasidagi muloqot chegaralarini kesib o‘tib, ularning to‘g‘ri yetkazilishini ta‘minlaydigan ko‘p qirrali jarayonlar majmuasidir. Ushbu jarayon yangiliklarni turli ommaviy axborot vositalari orqali yaratish va tarqatishni, ularning og‘zaki hamda yozma shakllarda ifodalanishini o‘z ichiga oladi.

Yangiliklar tarjimasini tushunchasi hozirgi kunda bir necha terminlar bilan ataladi: “news translation”, “news interpretation” hamda ushbu tushuncha o‘rniga ilgari surilayotgan “transediting” — “tahrir-tarjima” [Stetting 1989; Schäffner 2012]. Yangiliklar tarjimasini bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida bir qator olimlar uning an’anaviy tarjima nazariyasi va tushunchalaridan yiroqlashgani hamda unga yangi nom kerakligini ta’kidlashadi [Bassnett 2005; Bielsa va Bassnett 2009; Schäffner va Bassnett 2010]. Ularning fikriga ko‘ra, bugungi kunda yangiliklar agentliklarida amalga oshirilayotgan tarjima sof tarjima emas, balki yangicha amaliyot hisoblanadi. Bielsa va Bassnett ushbu jarayonni tarjima emas, balki “qayta yozish” (*rewriting*) deb nomlaydi [Bielsa va Bassnett 2009, 57]. Darhaqiqat, bugungi kunda yangiliklar tarjimasida tarjimonning roli hamda bajaradigan ishi an’anaviy tarjimonnikidan sezilarli darajada farq qiladi.

Natijada bugungi kunda yangiliklar tarjimasini yangi nom — “transediting” (“tahrir-tarjima”) bilan atash bir qator olimlar tomonidan taklif etilgan bo‘lib, ushbu atama fanga 1989-yilda Stetting tomonidan kiritilgan [Stetting, 1989]. Uning ta’kidlashicha, tahrir, ya’ni yangilikning o‘zgartirilishi, yangiliklar tarjimasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki bir tildagi matnning ikkinchi tilga o‘girilishi jarayonida tarjima matni yangi auditoriya ehtiyojlariga mos holda qayta ishlanishi va chuqur tahrirlanishi lozim. Bu jarayonda oddiy tarjima matnidagi farqli ravishda bir qator o‘zgartirishlar amalga oshiriladi va tarjima matnidagi ayrim ma’lumotlar auditoriya ehtiyojiga mos tarzda o‘zgartiriladi.

Tahrir-tarjima tushunchasining yangiliklar tarjimasiga mosligi masalasi bir qator olimlar o‘rtasida chuqur bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Ba’zi olimlar bu “yangi” nomni qabul qilib, o‘z tadqiqotlarida foydalana boshlagan bo‘lsa [Hernandez Guerrero 2010; Lu va Chen 2011; van Dorslaer 2009; Hursti 2001], boshqalari bu tushunchaning fanga kiritilishiga qarshilik bildirgan. Bular qatoriga birinchilardan bo‘lib Bielsa va Bassnetni kiritish mumkin. Ularning nazarida “ushbu sun’iy tushunchani ishlatish yangiliklar tarjimasining boshqa shakli borligiga imo qiladi” [Bielsa va Bassnett 2009, 63–64]. Tahrir-tarjima (*transediting*) tushunchasi yangiliklar tarjimasining alohida janr sifatida tushunilishiga xizmat qilishi mumkin, biroq bu shundoq ham oddiygina til almashtirish deb qaralayotgan tarjima amaliyotiga yanada putur yetkazishi mumkin [Schäffner 2012]. Bizning nazaramizda ham bugungi kundagi yangiliklar tarjimasini alohida yo‘nalish va “tahrir-tarjima” termini bilan atash to‘liq maqsadga muvofiq emas. Zero, har qanday amaliyotda ham tarjima amalga oshiriladi. Biroq yangiliklar tarjimasini tarjima nazariyasi va amaliyotida alohida yo‘nalish sifatida o‘qitish hamda o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda yangiliklar tarjimasini amalga oshiruvchi shaxs faqat tarjimon emas, balki jurnalist ham bo‘lishi mumkin. Ya’ni agar ushbu yangiliklar tarjimon tomonidan amalga oshirilsa, bu tarjimondan nafaqat tarjima mahoratini, balki bir qator jurnalistik malaka va ko‘nikmalarni ham talab qiladi. Bundan tashqari, ayni paytda ko‘p hollarda tarjima tahriri ham aynan bir shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda shunga guvoh bo‘lish mumkinki, yangiliklar tarjimasini amalga oshirayotgan insonlar ko‘pincha “tarjimonlar” emas, balki jurnalistlardir.

Zamonaviy jurnalistlar odatda bir nechta tilni bilganlari sababli, ularda alohida tarjimondan foydalanishga ehtiyoj tug‘ilmaydi va postlarni shaxsan o‘zlari tarjima qiladilar. Biz ularni “jurnalist-tarjimonlar” deb atashimiz mumkin. Ular o‘zlarini tarjimon deb emas, balki xalqaro jurnalist deb atashadi.

Bir qator jurnalistlar bilan o‘tkazilgan intervyu natijasida shu narsa aniqlandiki, agentliklarda tarjima jarayoni yangiliklarni tayyorlash jarayoni bilan bevosita birlashib ketgan. Jurnalistlardan ularning yangiliklar tarjimoni sifatidagi roli haqida so‘ralganda, ular bundan hayron bo‘lishgan. Chunki ular tarjimoni post yozish va tahrirlashdan alohida jarayon sifatida ko‘rishmagan [Bielsa va Bassnett 2009, 65]. Xuddi shunday holatni “Kun.uz” sahifasidagi tarjimalarda ham kuzatish mumkin. Postlar odatda asl matndan juda erkin tarzda tarjima qilingan. Ba’zi o‘rinlarda berilgan tarjimalar asl matndan shunchalik keskin farq qiladiki, ularning jurnalistlar tomonidan qayta yozilganiga shubha qolmaydi. Shuningdek, ushbu saytda ayrim xorijiy yangilik va xabarlarining asl matniga biroz o‘zgartirish kiritilgan holda olinganini ham ko‘rish mumkin. Albatta, nashr bunda manbani ko‘rsatgan.

Yuqorida ta’kidlangan barcha fikrlarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, yangiliklar tarjimasini jarayonida tarjima matniga sezilarli o‘zgartirishlar kiritiladi. Ushbu o‘zgarishlar uni yangi auditoriyaga moslashtirish hamda to‘g‘ri qabul qilinishiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, xalqaro yangiliklar tarjimasini jarayonida eng ko‘p o‘zgarishlar xabarlarining sarlavhasi, tagsarlavhasi, paragraflar joylashuvi, qo‘shimcha ma’lumot qo‘shilishi va ayrim ma’lumotlarning olib tashlanishi bilan bog‘liq holda sodir bo‘ladi [Hernandez Guerrero 2005; Bielsa 2007: 142–143; Bielsa va Bassnett 2009, 64]. Quyida yangiliklar tarjimasini va tahriri jarayonida kuzatiladigan asosiy o‘zgarishlarni o‘zbek tilidagi “Kun.uz” onlayn nashriyoti misolida ko‘rib chiqamiz.

**1. Ma'lumot tushib qolishi.** Bu tarjima qilinayotgan auditoriya uchun keraksiz bo'lgan ma'lumotlar va parchalarni olib tashlashdan iboratdir. Ushbu ma'lumot so'z, gap yoki ayrim hollarda butun matn shaklida bo'lishi mumkin. Ma'lumot tushib qolishi holatlari yangiliklar tarjimasida ko'p kuzatiladi va u asosan nashr yoki saytning ichki qoidalaridan kelib chiqib farqlanadi. Masalan, "Kun.uz" saytidagi "Bolgariya va Ruminiya Shengen zonasining to'laqonli a'zosiga aylandi" nomli postdan olingan quyidagi misolda ma'lumot qo'shilishini ko'rish mumkin:

Asl matn	Tarjima matni
Shunday qilib, Vengriya yoki Gretsiya orqali ikki davlatga kiruvchi sayohatchilar va yuk mashinalari haydovchilari endi kechikmaydi. Hujjatlar endi Bolgariya–Gretsiya chegarasining oltita rasmiy o'tish punktlarida taqdim etilmaydi, deya aniqlik kiritdi dpa agentligi. Ruminiya tomonidagi chegaraning 30 kilometrlik qismida faqat e'lon qilinmagan, tasodifiy, maqsadli tekshiruvlar o'tkaziladi.	Travelers and freight truck drivers entering Bulgaria or Romania via countries such as Hungary or Greece will no longer face delays at border crossings. Specifically, document checks have been removed at six official crossing points on the Bulgaria-Greece border, while Romania's 30-kilometer border zone will only conduct occasional, targeted inspections.

Ushbu jadvalda qo'shimcha ma'lumotning so'z birikmasi shaklida kiritilganini ko'rish mumkin. Matnga "border crossings" so'z birikmasi qo'shimcha qilingan, bu esa tarjimaning asl kontentdan yanada aniqroq va tushunarliroq chiqishiga xizmat qilgan.

**2. Ma'lumot qo'shilishi.** Odatda, yangiliklar tarjimasida tarjima tili auditoriyasiga noma'lum bo'lgan ayrim tushunchalar qo'shimcha ma'lumot berish orqali tushunarli yetkaziladi. Ma'lumotlar ko'pincha so'z birikmasi, bir so'z yoki butun gap shaklida bo'lishi mumkin. "Kun.uz" saytida ma'lumot tushib qolishi, umuman olganda, tarjima qilingan postni o'zgartirish holatlari boshqa yangilik saytlariga nisbatan ko'proq uchraydi. Quyida "Kun.uz" sahifasidan olingan "1 yanvardan kambag'al oilalar farzandlari davlat bog'chalariga imtiyozli asosda qabul qilinadi" nomli maqolaning so'nggi paragrafidagi qo'shimcha ma'lumot kiritilganini ko'rish mumkin:

Asl matn	Tarjima matni
— kambag'al oilalarga noutbuk sotib olish uchun 5 yil muddatga 2 yil imtiyozli davr bilan garovsiz va foizsiz qarz ajratiladi; — tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun qiymati 30 mln so'mgacha bo'lgan kichik ishlab chiqarish uskunolari, ko'chma do'konlar (food truck), motoroller, skuter va shu kabi boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun 5 yil muddatga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan garovsiz va foizsiz qarz ajratiladi.	— Laptop purchases: Interest-free and unsecured loans will be provided to low-income families to purchase laptops. The loans will have a five-year repayment term, including a two-year grace period. — Entrepreneurship support: Low-income families can also access interest-free and unsecured loans to purchase small-scale production equipment, food trucks, motor scooters, and other essential tools for entrepreneurial ventures. These loans will be repayable over five years through installment plans.

Ushbu misolda bir vaqtning o'zida qo'shimcha ma'lumot kiritilishi bilan birga ma'lumot tushib qolishi holatini ham kuzatish mumkin. "Entrepreneurship support: Low-income families can also access..." qismi o'quvchiga ma'lumotni yanada aniqroq yetkazish uchun ishlatilgan. Asl matndagi "30 mln so'mgacha" so'z birikmasi esa tarjima jarayonida qoldirib ketilgan. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, "Kun.uz" sahifasidan olingan ayrim tarjimalarda ba'zan oxirgi paragraflar butunlay tarjima qilinmay, tushirib qoldirilganini ham kuzatish mumkin.

**3. Sarlavhaning o'zgartirilishi.** Yangiliklar tarjimasida sarlavhaning o'zgartirilishi deyarli tabiiy hol bo'lib, tarjima jarayonida yangilikning tarjima tilida ta'sirli yetkazilishi, auditoriya diqqatini jalb etishi kabi omillar inobatga olinadi. Shunga mos ravishda sarlavha qisman yoki to'liq o'zgartiriladi. Masalan, "Kun.uz" saytida chop etilgan «Zapravka»da videomurojaat qilgan shaxs 15 sutkaga qamaldi" nomli postning sarlavhasi ingliz tiliga "Tashkent court sentences man who protested against gas station closure and energy sector failures" tarzida tarjima qilingan. Bu yerda "15 sutka" tushunchasi ingliz auditoriyasiga begona bo'lishi mumkinligi sababli, uning o'rniga "Tashkent court" so'z birikmasi ishlatilgan va tarjimada umumlashtirish holati kuzatilgan. Bu sarlavhaning qisman o'zgartirilishiga misol bo'la oladi. Aynan mana shu postning ichida ma'lumot tushirib qoldirilishini ham kuzatish mumkin.

**4. Tagsarlavhaning o'zgartirilishi.** Barcha yangiliklar matnlari o'z qolipiga ega bo'lib, ularning aksariyatida tagsarlavha mavjud bo'ladi. Tagsarlavha asosiy sarlavhadan keyin o'quvchining diqqatini jamlash uchun xizmat qiladigan vosita hisoblanadi. Sarlavhaga kiritiladigan tarjima o'zgarishlari

tagsarlavhada ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan, "Kun.uz" saytidan olingan navbatdagi maqolaning tarjimasiga nazar solaylik:

Asl matn	Tarjima matni
Qonunchilikka ko'ra, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish doirasida kambag'al oilalar farzandlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga imtiyozli asosda qabul qilinadi.	Starting January 1, 2025, children from low-income families will be granted priority admission to public preschools under Uzbekistan's "From Poverty to Prosperity" initiative. This policy aims to enhance access to education for vulnerable groups, marking a significant step in the country's ongoing efforts to reduce poverty.

Yuqoridagi jadvalda ingliz auditoriyasi uchun bu dastur maqsadi noaniq bo'lishi mumkinligi sababli, o'quvchida qiziqish uyg'otish maqsadida tagsarlavhada bu haqida batafsil ma'lumot berilgan.

**5. Paragraflar joylashuvining o'zgarishi.** Paragraflar o'rning o'zgarishi ayrim hollarda uchraydigan hodisa bo'lib, unda ma'lumotlarning tarjima tilida osonroq yetkazilishi uchun asl matn va tarjima matnida paragraflar tartibi o'zgartirilishi mumkin. Bu turdagi ma'lumotlar odatda xronologik xarakterga ega bo'lmaydi va mazmunga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha, tarjimaning yanada aniqroq va tushunarliroq yetkazilishiga xizmat qiladi.

#### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda yangiliklar tarjimasini tarjima nazariyasida alohida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan sohalaridan biridir. Ushbu sohada alohida nazariya va qarashlar ilgari surilayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Bulardan eng asosiysi sifatida "transediting", ya'ni "tahrir-tarjima" tushunchasining fanga kiritilishini misol qilish mumkin. Shuningdek, bugungi kunda yangiliklar tarjimasini ko'p hollarda jurnalist-tarjimonlar amalga oshirib, tahrirlash ishlari ham aynan ular tomonidan bajarilmoqda. Ular o'zlarini tarjimon emas, balki jurnalist yoki xalqaro jurnalist sifatida ko'rsatadilar, chunki ko'p hollarda yangiliklar tarjimasini alohida jarayon sifatida emas, balki yangiliklarni yaratish va tahrirlashning bir qismi sifatida qabul qiladilar. Oddiy tarjimon yangiliklar tarjimasini amalga oshirishi uchun esa bir qator jurnalistik malaka va ko'nikmalarga ham ega bo'lishi lozim.

Yangiliklar tarjimasini amalga oshirish jarayonida tarjima qilinayotgan til va yangilikni o'qiyotgan auditoriya ehtiyojlaridan kelib chiqib, turli o'zgartirishlar kiritiladi. Bu o'zgarishlar sarlavha, tagsarlavha, matndagi ma'lumotlarni o'zgartirish, ma'lumotlarni tushirib qoldirish hamda paragraflar o'rnini almashtirish kabi amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Bu o'zgartirishlar nafaqat tarjima qilinayotgan til auditoriyasi ehtiyojlari, balki nashrning ichki qonun-qoidalaridan kelib chiqib ham turli nashrlarda turlicha amalga oshiriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Bassnett S. Bringing the News Back Home: Strategies of Acculturation and Foreignisation // *Language and Intercultural Communication*. – 2005. – Vol. 5(2). – P. 120–130. – DOI: <https://doi.org/10.1080/14708470508668888>.
2. Bielsa E., Bassnett S. *Translation in Global News*. – London: Routledge, 2009.
3. Hernández Guerrero M. J. Translated Interviews in Printed Media: A Case Study of the Spanish Daily *El Mundo* // *Across Languages and Cultures*. – 2010. – Vol. 11(2). – P. 217–232. – DOI: <https://doi.org/10.1556/Acr.11.2010.2.5>.
4. Hursti K. An Insider's View on Transformation and Transfer in International News Communication: An English-Finnish Perspective // *Helsinki English Studies*. – 2001. – Vol. 1. – P. 1–5.
5. Lu G.-h., Chen Y.-m. The Mediation of Reader Involvement in Soft News Transediting // *Translation and Interpreting*. – 2011. – Vol. 3(2). – P. 48–66.
6. van Doorslaer L. How Language and (Non-)translation Impact on Media Newsrooms: The Case of Newspapers in Belgium // *Perspectives: Studies in Translatology*. – 2009. – Vol. 17(2). – P. 83–92.
7. Schäffner C., Bassnett S. *Politics, Media and Translation: Exploring Synergies* // *Political Discourse, Media and Translation* / eds. C. Schäffner, S. Bassnett. – Newcastle upon Tyne: Cambridge Scholars Publishing, 2010. – P. 1–29.
8. Schäffner C. Rethinking Transediting // *Meta: Translators' Journal*. – 2012. – Vol. 57(4). – P. 866–883. – DOI: <https://doi.org/10.7202/1021222ar>.
9. Stetting K. Transediting: A New Term for Coping with the Grey Area between Editing and Translating // *Proceedings from the Fourth Nordic Conference for English Studies* / ed. G. Cale. – Copenhagen: University of Copenhagen, 1989. – P. 371–382.
10. Kun.uz. – URL: [Kun.uz](http://Kun.uz)